

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI,
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI
VAZIRLIGI**

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**



«TASDIQLAYMAN»

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektor**

K.Seitnazarov

» _____ 2025 y.

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti ixtisosligi bo‘yicha mutaxassislik fanlaridan
tayanch doktoranturaga kirish imtihoni
DASTURI**

K I R I S H

Mazkur dastur 10.00.02 – O‘zbek adabiyoti ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga kirish imtihoni uchun mo‘ljallangan bo‘lib, hozirgi adabiy jarayon va adabiy tanqid, shuningdek, zamonaviy adabiyotning dolzarb muammolar, adabiy yo‘nalishlar, nazariy ta‘limotlarga oid bilim va ko‘nikmalarni tekshirish va baholashga mo‘ljallangan holda uchun ishlab chiqilgan. Dastur O‘zbekiston Respublikasi davlat ta‘lim standarti, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to‘g‘risida”gi qonunlari asosida va uning talablariga muvofiq tuzildi.

Dasturni tayyorlashda “O‘zbek adabiyoti”, “Adabiyotshunoslik asoslari”, “Adabiyot nazariyasi”, “O‘zbek bolalar adabiyoti”, “O‘zbek folklori”, “ifodali o‘qish”, “Ilmiy tadqiqot asoslari”, “Badiiy asar tahlili”, “Navoiyshunoslik”, “O‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi”, “Aruz va poetika asoslari”, “jahon adabiyoti” fanlari dasturlariga tayanildi.

Dastur Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Kengashisining 2025-yil ____- _____dagi ____-sonli yig‘ilishida muhokama qilinib, foydalanishga tavsiya etilgan.

Tuzuvchilar:

S.Bekchanova – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti)

S.Matyakupov – filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent. (Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti)

Taqrizchilar:

I.Yoqubov – filologiya fanlari doktori, professor (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti).

H.Abdullayev – filologiya fanlari nomzodi, professor (Qoraqalpoq davlat universiteti).

O'ZBEK ADABIYOTI

Mumtoz adabiyot istilohi, uning ma'no ko'lam. Sharq xalqlari mumtoz adabiyotida mushtaraklik va o'ziga xoslik, o'zaro ta'sir masalalari. O'zbek mumtoz adabiyoti Sharq adabiyoti kontekstida. Mumtoz adabiyotda sujetlarning, janrlarning ko'chishi va o'zbek mumtoz adabiyotida qat'iylashuvi.

Mumtoz adabiyotdagi davriy o'zgarishlar va bularning sabablari. O'zbek mumtoz adabiyotini davrlashtirish masalasi. Adabiy-badiiy hodisalar davrlashtirishning muhim mezon. Adabiyot tarixi jamiyat tarixi tarkibida. Adabiyotshunoslar tomonidan taklif etilgan davrlashtirish prinsiplari. Mumtoz adabiyotni o'rganishning metodologik asoslari va uni tadqiq etish metodlari. Shu kungacha qo'llanilgan tadqiqot metodlari. Adabiy tahlil usuli. Qiyosiy-tarixiy metodning mumtoz adabiyotni o'rganishdagi afzalliklari. Mumtoz badiiy asarlarni talil qilishda yangi metod va yondashuvlar.

Mumtoz adabiyotning paydo bo'lishi va shakllanishi. Mumtoz adabiyotning paydo bo'lishi va shakllanishidagi asosiy omillar: mifologiya va uning yozma adabiyot taraqqiyotidagi o'rni, xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyot munosabati, tarjima adabiyoti va mumtoz adabiyot. Islomgacha bo'lgan turli diniy oqimlar (zardushtiylik, moniylik, buddaviylik va b.)ning yozma adabiyot yuzaga kelishidagi roli. Mumtoz adabiyotning falsafiy-nazariy manbalari, jumladan, diniy manbalar, irfon va falsafa, tarix va boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligi. Qur'oni karim va hadisi sharif badiiy ijodning bosh manbasi sifatida. Didaktik adabiyot va uning vakillari.

Didaktik asarlar. **Didaktik asarlar** ("Kalila va Dimna", "Chor Darvesh", "Guliston" (Sa'diy), "To'tinoma", "Bahoriston" (Jomiy) va boshqalar); **badiiy bo'lmagan asarlar, jumladan, geografiyaga oid** ("Ajoyib ul-buldon", "Hudud ul-olam...", "Safarnoma", "Qandiya" va boshqalar), **tarixga oid** ("Ta'rixi Bal'amiy/ "Tarixi Tabariy" tarjimalari, "Tarixi Buxoro" (Narshaxiy), "Ta'rixi Bayhaqiy" va boshqalar) va boshqa turli mavzulardagi asarlar, jumladan, **tazkiralalar va siyosiy-axloqiy mavzudagi asarlar** ("Qobusnoma" (Kaykovus), "Siyosatnoma" (Nizom ul-mulk), "Navro'znoma" (Umar Hayyom), "Chahor maqola" (Nizomiy Aruzi Samarqandi), "Hadoyiq us-sehr fi daqoyiq ush-she'r" (Rashiddin Vatvot), "Tazkirat ul-avliyo" (Attor), "Fi hi mo fih" (Rumi) "Lubob ul-albob" (Avfiy), "Tazkirat ush-shuro" (Davlatshoh Samarqandiy) va boshqalar.)

Mumtoz she'r. Mumtoz she'rning mumtoz nasrdan farqli jihatlari. Mumtoz she'rning shakllanishi. Aruz she'r sistemasi haqida umumiy ma'lumot. Qofiya va bayt, qofiya va band. An'ana va o'ziga xoslik – mumtoz adabiyotdagi eng muhim adabiy hodisa. O'zbek mumtoz adabiyotining tur va janrlari. Lirik tur. Lirik turga mansub janrlar. O'zbek mumtoz adabiyotida ularning barqarorlashi va tadrijiy takomili. Devon, bayoz va tazkiralalar – mumtoz adabiyotni o'rganishda muhim manbalar. Devon, bayoz tuzish va tazkirachilik tarixidan.

Mumtoz adabiyotda an'anaviy mavzu va obrazlar. O'zbek mumtoz adabiyotida obrazlar tizimi (lirik asar, epik asar misolida). An'anaviy obrazlar genezisi va rivojlanishi tadriji. Sharq adabiyoti uchun umumiy bo'lgan obrazlar tasnifi va tavsifi. Ramz va timsollar olami. O'zbek mumtoz adabiyotida majoz tarixi. Badiiy matn talqinida ramz va timsollarning muayyan adabiyotdagi daxldorligini e'tiborga olish zarurati. Rang, son, tabiat ashyolariga oid ramziy timsollar va ularning ma'nolari.

O'zbek mumtoz poetikasi asoslari. **Mumtoz poetika haqida umumiy ma'lumot.** Ilmlar uchligi va ularning mumtoz poetikani o'rganishdagi ahamiyati. Adabiy va tarixiy manbalarda mumtoz poetikaga doir qarashlar. Balog'at ilmi. Uning tarixi va tadrijiy takomili. Fasohat. Ilmi bayon. Balog'at ilmida tashbeh. Haqiqat va majoz. Istiora. Arabiy manbalarda balog'at ilmiga berilgan baho. Forsiy manbalarda balog'at ilmi. Balog'at ilmining sof adabiyotshunoslikdagi talqini. Ilmi aruz, ilmi bade', ilmi qofiya. **Mumtoz adabiyotda adabiy turlar va she'r nav'lari.** Adabiy tur tushunchasi va uning ifodalanish shakllari (nasr, nazm). Baytli she'r shakllari. G'azal, qasida va mustazod janrlari. Kichik lirik janrlar tavsifi.

Qadimgi davr adabiyoti. Eng qadimgi davrlardan X asrgacha bo'lgan adabiyot. Turonzamin qadimgi madaniy markazlardan biri sifatida. Qadimgi davrlardan eramizning VIII asrigacha Markaziy Osiyoda yashagan xalqlar madaniyati, yozuvi va san'ati. Qadimgi shumer

madaniyati va turkiy qavmlar tarixi. “Bilgamish” dostonining turkiy xalqlar eposiga munosabati.

Eng qadimgi og‘zaki adabiy yodgorliklar. Ularning asosiy manbalari. Mif va afsonalar qadimgi hayot aksi, tabiat haqidagi tasavvurlarining badiiy ifodasi ekanligi. Mif va afsonalarda badiiy xayolotning o‘rni. Xitoy manbalarida Markaziy Osiyo xalqlariga doir ma’lumotlar.

Islom madaniyatining shakllanishi va musulmon intibohi (renessansi). Somoniylar, saljuqiylar, g‘aznaviylar va qoraxoniylar davrida islomiy madaniyat. Hadis to‘plash an‘anasi va unda turkistonlik buyuk muhaddislarning roli. Imom Buxoriy va at-Termiziy. «Al-jome‘u-s-sahih» va «Shamoyili Muhammadiyya» asarlari. IX-X asrlarda arab tilining madaniy hayotga faol aralashuvi. **Arab va fors tillaridagi adabiyot.** Turkiy xalqlarning arab va fors tillarida ijod etishi. Markaziy Osiyo buyuk allomalar vatani: Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino asarlarida adabiyot masalalari. Badiiy asarlar va tazkirachilik. Abu Mansur as-Solibiy va uning «Yatimatu-t-dahr» asari. Chag‘oniyon adabiy muhiti. **XI-XIII asrlar adabiyoti.** XI-XIII asrlarda Markaziy Osiyoda madaniy hayot. Turkiy tilning yangi adabiy bosqichga ko‘tarilishi. Qoraxonlilar davrida turkiy madaniyatning taraqqiyoti. Bolasog‘un va Koshg‘ardagi madaniy hayot. Turkiy dostonchilik maktabining vujudga kelishi. Badiiy asarlarda Qur‘oni karim va Hadisi sharif sharhlari.

Mahmud Koshg‘ariy va uning “Devonu lug‘oti-t-turk” asari. “Devonu lug‘oti-t-turk” – adabiy manba sifatida. **Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodining manbalari.** “Qutadg‘u bilig” hamda ijtimoiy-siyosiy va falsafiy masalalar. Dostonda axloqiy va estetik qarashlar. Doston janrlari: masnaviy, qasida, to‘rtlik va g‘azal unsurlari. Asarning ahamiyati. **Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodining manbalari.** Adib Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodining o‘rganilish tarixi. “Hibatu-l-haqoyiq” asari. Asar mavzui va tarkibi. Hadislar asosida badiiy asar yaratish an‘anasi. Asarning badiiy xususiyatlari. **Xoja Ahmad Yassaviy** ijodi. Turkiy she‘riyatda hikmat janrining shakllanishi. “Devoni hikmat” asari va uning tarkibi. Yassaviy izdoshlari. Sulaymon Boqirg‘oniy asarlari. “Boqirg‘on kitobi” mundarijasi.

XIV-XVI asrlar adabiyoti. davr madaniy hayotiga sharh. Turkistonda tasavvufning vujudga kelishi va tarqalishi. Tasavvuf tarixida irfon bosqichi. Ibrohim Adham, Shaiq Balxiy va Imom G‘azzoliy asarlari. Ilk turk mutasavviflari ijodi. Yassaviylik tariqati va uning adabiy manbalari. Kubroviyya tariqati va bu tariqatning badiiy ijodda aks etishi. Adabiy janrlar va ularning taraqqiyoti.

Nosiriddin Rabg‘uziy hayoti va ijodining manbalari. Adib ijodining o‘rganilish tarixidan. Payg‘ambarlar tarixi asosida yaratilgan asarlar. “Qisasi Rabg‘uziy” (“Qisasu-l-anbiyo”) asarining tarkibi. Asar tarkibidagi hikoya va mumtoz she‘riy janrlar. **Sayfi Saroyi ijodi.** Shoir lirikasining mundarijasi va badiiy xususiyatlari. “Suhayl va Guldursun” dostoni. “Gulistoni bi-t-turkiy” asari. Ma‘rifiy-ta‘limiy adabiyot. **Haydar Xorazmiy** ijodi. Shoir hayoti va ijodining manbalari. “Maxzanu-l-asror” dostoni va Nizomiy ijodiga munosabat. Dostonning kompozitsion qurilishi va syujeti. **Xorazmiy va uning “Muhabbatnoma”si.** Asar tarkibi va janr xususiyatlari. **Durbek ijodi.** “Yusuf va Zulayho” dostoni. Doston muallifligi masalasi. Badiiy adabiyotda “Qissayi Yusuf” sujeti. **Qutb hayoti va ijodining manbalari.** “Xisrav va Shirin” dostonining yaratilish tarixi, nusxalari. Asar syujeti, voqealar silsilasi va asosiy qahramonlari. **Atoiy** ijodiy merosining o‘rganilish tarixidan. Atoyining lirik merosi. Lirikasining mavzular ko‘lami va timsollar olami. Atoiy she‘riyatida majoz va haqiqat. **Sakkokiy hayoti va ijodining o‘rganilish tarixi.** Adabiy merosi. Turkiy qasidachilik taraqqiyotida Sakkokiyning o‘rni. Sakkokiy lirikasining mavzulari va timsollar tizimi. **Gadoiy** hayoti va ijodining o‘rganilish tarixi. Gadoiyning ijodiy merosi. Gadoiy she‘riyatining mavzulari, mundarijasi va janr xususiyatlari. **Lutfiyning ijodiy faoliyati.** Lutfiy va Navoiy munosabatlari. Lutfiy lirikasi, janr xususiyatlari. Turkiy she‘riyatda tuyuq janrining takomili. Lutfiy she‘riyatida badiiy mahorat. Lutfiyga nisbat berilgan asarlar. **Husayniy** lirikasining manbalari. Husayniy va Alisher Navoiy munosabatlariga doir. “Risola” asari va uning mundarijasi. Husayniy lirikasining badiiy xususiyatlari. Alisher Navoiy Husayn Boyqaro haqida.

Alisher Navoiy ijodiy merosi. Uning turkiy xalqlar adabiyotida, umuman jahon adabiyotida tutgan o‘rni. **Bobur hayoti va ijodining o‘rganilish tarixi.** Shoirning hayoti va ijodiy faoliyati aks etgan manbalar. Bobur she‘riyati. Devonining janr xususiyatlari. Badiiy mahorati.

«Boburnoma»ning janr xususiyatlari. Uning adabiy-ilmiy qimmat. Asardagi timsollar. Badiiy xususiyatlari. Asarning ahamiyati. Ilmiy va falsafiy merosi. “Aruz risolasi”da turkiy aruz masalalari. “Mubayyin” ta’limiy-tasavvufiy asar sifatida. “Volidiyya” asarida Xoja Ahror Valiy ta’limoti.

XVII asrdan XIX asrning ikkinchi yarmi (1865-yil)gacha bo’lgan davr adabiyoti. Davr madaniy hayotiga sharh. Siyosiy hayotdagi beqarorlik va sulolalar almashinuvi. Adabiy hayotning o’ziga xos xususiyatlari. Xonliklar markazlarida adabiy muhitning shakllanishi va taraqqiyoti. Buxoro adabiy muhiti. Buxoro adabiy muhitining xos xususiyatlari. Shayboniyxon hayoti va ijodi. Muhammad Solih ijodi. Xoja ijodi. Qul Ubaydiy hayoti va ijodi manbalari. Turdi ijodi. Mashrab hayoti va ijodi manbalari. So’fi Olloyor hayoti va asarlari.

Xiva adabiy muhitidagi madaniy hayot. Adabiy muhit va uning o’ziga xos jihatlari. Zullisonaynlik va Navoiy an’alarining davom ettirilishi. Devon tuzish an’alarining takomillashtirilishi. Janrlar poetikasi. Tarixnavislik. Tarjima maktabining o’ziga xosligi, takomillashuv tamoyillari. Bayozchilik, tazkiranavislik va noshirlikning taraqqiy etishi. Abul’ozi Bahodirxon hayoti va ijodiy merosi. Nishotiy hayoti va ijodi manbalari. Andalib hayoti va ijodi. Shermuhammad Munisning ijodiy faoliyati. Ogahiy hayoti va ijodi manbalari.

Qo’qon xonligidagi madaniy hayot. O’rganilishi. Adabiy muhitning shakllanishi va o’ziga xos xususiyatlari. Amiriyning adabiy muhit asoschisi va rahnamosi sifatidagi maqomi. Janrlar poetikasi. Adabiy muhitda xalq og’zaki ijodiga munosabat masalasi. Tarixnavislik, she’riyat, nasr, matbaa ishlari, adabiy hamkorlikning noyob mahsullari yaratilishi. Tazkiranavislikning yangi shakllari. Fazliy Namangoniy rahbarligida tuzilgan tazkira. “Majmuai shoiron”ning o’zbek adabiyoti tarixidagi o’rni. Tuzilishi va janrlar tarkibi. G’oziy ijodi. “Yusuf va Zulayxo” dostoni. Satirik va yumoristik asarlar. Maxmur adabiy merosi. Xo’janazar Huvaydo hayoti va ijodi. Amiriy hayoti va ijodi manbalari. Gulxaniy hayoti va ijodi. Uvaysiy hayoti va ijodi. Mohlaroyim Nodira hayoti va ijodi. Muhammad Alixon (Xon) ijodi.

Milliy uyg’onish davri o’zbek adabiyoti. (1865-yildan 1929-yilgacha). Davr adabiyotining ilk bosqichi – yangicha ma’rifatparvarlik adabiyoti: manbalari, yuzaga kelishi.

Xalq ozodlik harakatlari adabiyotning bosh mavzusi sifatida. Adabiy janrlar va vaznlarning yangilanishi. Yangicha yo’nalishdagi hajvchilik: she’riy manzumalar, sayohatnomalar, maktubotlar turkumi. Toshkent va boshqa markaziy shaharlarda bosmaxonalarning vujudga kelishi, matbuotning yo’lga qo’yilishi, o’qitish tizimidagi yangiliklar va mustamlaka o’lkada yangicha ma’rifatparvarlikning vujudga kelishi. Tarjimachilik rivoji. Sharq va G’arb adabiyotidan tarjimalar. Komil Xorazmiy ijodiy merosining o’rganilishi tarixi. Feruz adabiy merosi. Ahmad Tabibiy. Hayoti va ijodi. Muqimiy hayoti va adabiy merosi o’rganilishi tarixi. Tarjimai holi Furqatning tarjimayi holi. Farg’ona hamda Toshkent davri faoliyati. Furqatshunoslik tadriji. Yangicha ma’rifatparvarlik faoliyati. Is’hoqxon Ibrat – ma’rifatparvar shoir, publitsist, tarixshunos, tilshunos olim, sayyoh, ilk o’zbek matbaachilaridan biri sifatida. Fazlulloh Almaiy ijodiy merosi.

Milliy va ijtimoiy kurashlar davri adabiyoti. XX asr boshlari Turkistonda ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot. Jadidchilik. Turkistonda jadidchilikning rivojlanish bosqichlari. Davrlashtirish tamoyillari. Ma’rifiy islohotlar davri. Ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy kurashlar davri. Madaniy-adabiy hayot (1905-1917). “Usuli jadid” maktablari. Milliy matbuot. Xayriya jamiyatlari va boshqa turli ma’rifiy tashkilotlar. Yangi milliy teatr. Badiiy adabiyot. Adabiy tanqid. Badiiy tarjimachilik.

Ismoilbek Gasprinskiy hayoti va faoliyati. Mahmudxo’ja Behbudiy hayoti va faoliyatining o’rganilish tarixi. Abdulla Avloniy. Avloniyshunoslik. Hayoti sahifalari. **Abdurauf Fitrat** hayoti va ijodining o’rganilishi tarixi, manbalari. **Cho’lpon** tarjimai holi. Jadidchilik va Cho’lpon she’riyati. **G’afur G’ulom hayoti va ijodi.** G’afur G’ulom o’zbek adabiyotining yetuk amoyondalaridan biri sifatida. **Oybek hayoti va ijodi.** Adibning adabiy merosi haqida ma’lumot. Oybek lirikasining g’oyaviy-badiiy xususiyatlari. **Hamid Olimjon hayoti va ijodi.** H.Olimjon-baxt va shodlik kuychisi. X.Olimjon – tarjimon, adabiyotshunos. **Abdulla Qahhor hayoti va ijodi.** A.Qahhor-hikoyanavis. **Usmon Nosir hayoti haqida ma’lumot.** Uning fojiali qismati va ijodiga bo’lgan yangicha munosabat. **Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodi. Mirtemir hayoti va ijodi.** Shoir ijodida davr ziddiyatlarining tasviri. SHoir ijodida tabiat lirikasi. **Zulfiya hayoti va ijodi.**

Shoira she'riyatida hijron va sadoqat motivi. **Said Ahmad hayoti va ijodi.** S.Ahmad romanlarida realistik hayot tasviri. **Odil Yoqubov hayoti va ijodi.** O.Yoqubov asarlarida ma'naviyat masalasi – bosh pafos sifatida. **Pirimqul Qodirov hayoti va ijodi.** P.Qodirov qissalarida shaxs va ma'naviyat masalalarining yoritilishi. **Erkin Vohidov hayoti va ijodi.** E.Vohidov she'riyatida an'ana va novatorlik «Yoshlik» devoni va zamonaviy g'azalchilik muammolari. Shoir dostonlarida shaxs erki va ma'naviyat, ma'rifat masalalarining yoritilishi. E.Vohidovning istiqlol yillari davridagi ijodi. **Abdulla Oripov hayoti va ijodi.** A.Oripov she'riyatida badiiy mukammallik va falsafiy teranlik. A.Oripov – tarjimon. A.Oripovning istiqlol yillari davridagi ijodi. Shoir dramatik dostonlarida ma'naviyat masalasining badiiy talqini. “Haj daftari” turkumiga kiruvchi she'rlarida islomiy-axloqiy masalalarning yoritilishi. **O'tkir Hoshimov hayoti va ijodi.** O'.Hoshimov – mahoratli romannavis. “Ikki eshik orasi” va “Tushda kechgan umrlar” romanlari urush muammosining insoniyat boshiga keltirgan fojialari va milliy o'zlikni anglash, ma'naviy qadriyatlar muammosini badiiy talqin qiluvchi asarlar. **Shukur Xolmirzaev hayoti va ijodi.** Sh.Xolmirzaev – hikoyanavis. Ramziy va fantastik tasvirning realizm bilan uyg'unlashuvi tasvirning o'ziga xosligi sifatida. **Tog'ay Murod hayoti va ijodi.** Adib ijodida milliylikning o'ziga xos shaklda namoyon bo'lishi. Milliy va ma'naviy qadriyatlar masalasining adib ijodida zuhur topishi. Adib romanlarida shaxs fojiasi talqini. Xalq fojiasining badiiy bo'yoqlarda aks etishi. **Rauf Parfi ijodiy merosi.** Rauf Parfi – iste'dodli shoir. Rauf Parfi she'rlarida Vatan, millat va erk mavzusi. Muhabbat tarannumi. **Shavkat Rahmon ijodi.** Shavkat Rahmon – shoir va tarjimon. Shavkat Rahmon ijodining tadrijiy takomili. **Usmon Azim ijodi.** Usmon Azim – iste'dodli shoir, dramaturg va adib.

“ADABIYOTSHUNOSLIK ASOSLARI”

Adabiyotshunoslik-badiiy adabiyot haqidagi fan; adabiyotshunoslikning ob'ekti, predmeti, vazifalari; adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari; adabiy tanqid; adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, adabiyotshunoslikning tilshunoslik, san'atshunoslik, tarix kabi ijtimoiy fanlar bilan bog'liqligi. Hayot va adabiyot. Adabiyot - hayotning badiiy in'ikosi sifatida. Badiiy obraz. Badiiy adabiyotda tipiklashtirish. Badiiy adabiyotda dunyo qarash, g'oyaviylik, xalqchilik, milliylik va umuminsoniylik. Badiiy asar mazmuni va shakli mutanosibligi. Adabiy asar tuzilishi. Mazmun va shakl mutanosibligi. Badiiy asar mavzusi va g'oyasi. Badiiy asar syujeti. Syujet unsurlari. Badiiy asar kompozitsiyasi. Badiiy asar tili. Badiiy tasvir vositalari. She'riy nutq haqida tushuncha. Aruz tizimi. Poetik ko'chimlar. Badiiy san'atlar. Adabiy turlar va janrlar. Ijodiy metodlar. Adabiy oqimlar. Uslub.

“ADABIYOT NAZARIYASI”

Adabiyot nazariyasi fan sifatida. Adabiyot nazariyasi adabiyotshunoslikning tarkibiy qismi sifatida. Adabiyot nazariyasida badiiy adabiyotning o'ziga xosligi. Adabiyot nazariyasining jah on adabiy jarayoni tajribalari, ulkan san'atkorlar va eng rivojlangan milliy adabiyotlar tajribalariga asoslanish. Adabiyot nazariyasining mustaqillik mafkurasini takomillashtirish va istiqlol davri adabiyotini baholashdagi roli. Sharqda adabiy-nazariy fikrlarning vujudga kelishi. Adabiyotshunoslik kategoriyalarining shakllanishi. Badiiy adabiyotga ilmiy-tarixiy qarashlarning shakllanishi. Hozirgi adabiyotshunoslikning asosiy metodlari. Badiiy adabiyotning o'ziga xos xususiyatlari. Badiiy asar tarkibi va uning tahlili. Badiiy asarda shakl va mazmun. Badiiy asar mavzui va g'oyasi. Syujet va kompozitsiya. Syujetning kompozitsiya bilan bog'liqligi. She'r tuzilishi. She'rning fonetik vositalari. She'riy sistemalar. Epik adabiy turiga xos xususiyatlar. Lirikaning adabiy turga xos yetakchi xususiyatlari. Dramatik turning o'ziga xos xususiyatlari. Adabiy yo'nalish va oqimlar. Ijodiy metodning birlashtiruvchi xususiyati. Romantizm va realizm ijodiy metod sifatida. Adabiy oqim va adabiy yo'nalishlar.

“O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTI”

Bolalar adabiyoti fan sifatida. Bolalar adabiyotining shakllanish tarixi. Bolalar adabiyoti fan va san'at turi sifatida. Bolalar adabiyoti kitobxonlarning yosh xususiyatlariga ko'ra tasniflanishi. Bolalar adabiyotining davrlashtirilishi va tarixiy muhit. Bolalar adabiyoti va folklor. Pandnomalar. Rivoyat va afsonalar. H.Olimjon, Oybek, Z.Diyor, S.Jo'ra va G'ayratiylar ijodi. I.Muslim,

Q.Muhammadiy, P.Mo'min, H.Nazir, A.Rahmat, N.Fozilov, X.To'xtaboyevlar ijodi. Istiqlol davri bolalar adabiyoti. Bolalar adabiyotida hayotga yangicha yondashishning yuzaga kelishi. S.Barnoyev, M.A'zam, T.Adashboyev, A.Obidjon, R.Tolib, A.Akbarlar ijodida hayotga munosabat talqini. Bolalar adabiyoti o'ziga xos xususiyatlari. O'zbek va jahon bolalar adabiyoti. Bolalar adabiyotida mavzular olami. Bolalar adabiyotida obrazlar talqini. O'zbek bolalar adabiyoti namoyandalarning hayoti va ijodi, adabiy merosi.

“O‘ZBEK FOLKLORI»

Xalq og'zaki ijodi haqida. Qadimgi davrda xalq og'zaki ijodi. Mif va afsonalar. Qahramonlik eposlari. Folklor janrlari. O'zbek xalq maqollari. Topishmoqlar. O'zbek xalq qo'shiqlari. Marosim folklori. Olqish va qarg'ishlar. Afsona va rivoyatlar. O'zbek xalq ertaklari. O'zbek xalq dostonlari. Xalq latifalari. Xalq dramasi va askiya. Bolalar folklori.

“HOZIRGI ADABIY JARAYON”

Bugungi hikoyalarning o'ziga xosligi va taraqqiyot xususiyatlari. Janrda g'oyaviy-tematik ko'lamning kengayishi. Gumanistik mazmun va psixologik tahlilning kuchayishi. Hozirgi o'zbek qissachiligining qirralari. Jamiyat tizimining o'zgarishi. Adabiyotda ijtimoiy muammolarning qissalarda o'z ifodasini topishi, milliy qadriyatlar va ma'naviyatga e'tiborning kuchayishi. Bugungi o'zbek romanida davr, tarix, zamon masalalari. Davr o'zgarishi bilan roman mavzusini o'zgarishi. hayotning turli mavzularida ijod qilishning boshlanishi. O'zbek fantastikasi tarixi va uning o'ziga xosligi. Fantastikaning turlari. Yangi bosqichdagi o'zbek dramaturgiyasi. Bugungi kun publitsistikasi va davr mezoni. Bugungi kun adabiy tanqidchiligi. Bugungi kun adabiy tanqidchiligida sodir bo'layotgan tub o'zgarishlar. Adabiy jarayon milliy va madaniy-merosimizning ajralmas qismi sifatida. Adabiyot jarayon va adabiy tanqid. Adabiy jarayon va tarjima adabiyoti. Nazariy va badiiy adabiyotning o'zaro aloqasi va bir-birini boyitishi. Badiiylik va zamonaviylik tamoyillari.

“IFODALI O‘QISH”

Ifodali o'qish fanining asoslari. Ifodali o'qish tarixi haqida umumiy ma'lumot. Yunonistonda notiqlik san'atining paydo bo'lishi va uning namoyandalari ijodi. O'zbek notiqlik tarixi Husayn Voiz Koshifiy, Mavlono Riyoziy, Xoja Muayyad Mehnagiylarning hayoti va faoliyati. Nutq vositalari. Unli va undosh tovushlar talaffuzi. Ifodali o'qish vositalari: urg'u, pauza, intonatsiya, temp va ritm.

“ILMIY TADQIQOT ASOSLARI”

Ilmiy izlanish jarayonida tadqiqotchining yangi bilimga erishish yo'llari ekanligi. G'oya va amaliyot munosabatlari; inson oqilona maqsadlariga muvofiqlik bilish taraqqiyotining tamoyili. Fan-inson aql-idrokining oliy mahsuli va kuch-qudratining mujassami. Ilmiy bilimlarni differentsiatsiyalash va bilimlar integratsiyasi fan rivojining qudratli stimuli sifatida. Jamiyat hayotida fan rolining oshib borishi. Ilmiy-tadqiqot ishlari ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas bir qismi sifatida. O'quv-tadqiqot ishlari-ta'lim jarayonining zaruriy unsuri. O'quv-tadqiqot ishlarining maqsad va vazifalari. Oliy ta'lim dargohi ilmiy jamoasining o'yziga xos jihatlari. O'quv-ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari. Ilmiy-tadqiqot ishlarining o'quv jarayoni bilan bog'liq bo'lgan shakllari. O'quv tadqiqot ishlarini rivojlantirish va tashkil qilish metodlari. Ilmiy tadqiqotga tayyorgarlik davri. Ilmiy ish uchun material manbalarini tanlash va uni ishlab chiqish.

“NAVOIYSHUNOSLIK”

Navoiy o'zbek adabiyotining daho san'atkori, gumanist shoir va davlat arbobi sifatida. Navoiy hayoti va ijodini o'rganish, targ'ib va tashviq etish borasidagi davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ishlar. Navoiyshunoslik fanini o'qitishning maqsad va vazifalari, predmeti. Xalq og'zaki ijodida Navoiy timsoli. Navoiy merosining o'rganilish tarixi. O'tmishda Navoiy hayoti va ijodining o'rganilishi. Navoiyshunoslikning taraqqiyot bosqichlari. Navoiy ijodining o'z zamonasida o'rganilishi. O'zbek adabiyotshunosligida Navoiy ijodining o'rganilishi. Yevropa va rus sharqshunosligida Navoiy merosining o'rganilishi. Navoiy ijodining sho'rolar davrida

o'rganilishi. XXI asr Navoiyshunosligi. Istiqlol davrida Navoiy ijodini o'rganishda yangicha qarashlar. Navoiyshunoslik oldida turgan dolzarb vazifalar.

“BADIY ASAR TAHLILI”

Badiiy tahlil asoslari, badiiy tahlilning ijtimoiy ahamiyati, ilmiy-tadqiqot metodlari va taraqqiyot istiqbollari. Badiiy tahlilda falsafiy va milliy asosning o'rni. Badiiy tahlil turlari, tahlil turlarining o'zaro aloqadorligi. Badiiy tahlil bosqichlari va uning badiiy tasvir bosqichlariga muvofiqligi. Badiiy tahlil yo'nalishlari: genetik, tipologik, funksional, falsafiy, psixologik va filologik. Ilmiy tahlil. Tahlil va milliy mentalitet. O'quv tahliliga xos tamoyillar. Didaktik tahlil. Badiiy tahlilning asosiy tamoyillari. Badiiy tahlilda shakl va mazmun. Badiiy tahlilda ob'ekt munosabati. Badiiy matnni tekshirishdagi ilmiy maktablar. Badiiy tahlilda adabiy turga xos xususiyatlarni hisobga olish. Lirik asarlarni tahlil qilish yo'llari. Epik asarlarni tahlil qilish. Dramatik asarlarni tahlil qilish.

“O'ZBEK ADABIY TANQIDCHILIGI TARIXI”

Qadimgi turk adabiyotshunosligi haqidagi ma'lumotlar. XX asrda qadimgi turk filologiyasi haqidagi tadqiqotlar. “Avesto”, “Devoni lug'atit turk” xususidagi ma'lumotlar. Fitrat, Miyon Buzruk singari olimlarning tadqiqotlari. Qadimgi turk og'zaki adabiyoti, she'riyati haqidagi manbalar. O'rta asr Sharq va G'arb adabiyotining bir-biriga o'zaro ta'siri haqida adabiyotshunoslik. Turk adabiy-tanqidiy tafakkurining shakllanishi. Turkiy adabiyot bilan fors-arab adabiyoti o'zaro aloqalar. Aruz va u haqidagi tadqiqotlar. Jomiy, Navoiy, Bobur, Kamoliddin Xusayn Voiz Koshifiy, Nishopuriy, Atoulloh Husayniy, Shayx Ahmad Taroziylarning adabiyotshunoslikni o'rganishga qiziqishning ortganligi. B.Valixojayev, A.Hayitmetov, I.Haqqulov, S.Olimovlarning tadqiqotlari. Adabiyotshunoslikda talqin muammosi. XX asr oxiri XX asr boshlaridagi O'zbek tanqidchiligiga qisqacha obzor. She'riy shakldagi adabiy-tanqidiy fikrlar. Matbuotning paydo bo'lishi va yangi yo'nalishdagi adabiy tanqidchilikning tug'ilishi. Tanqid termining tug'ilishi. Jadid matbuoti va adabiy tanqid. Ikkinchi jahon urushi davri tanqidchiligi. 60-yillardagi adabiy jarayonning faollashuvida adabiy tanqidchilik. 70-yillarning o'rtalarida o'zbek tanqidchiligi va adabiyotshunosligi. O'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi namoyandalari: Fitrat, Cho'lpon, Vadud Mahmud, Abdurahmon Sa'diy, Otajon Hoshimov, Olim Sharafiddinov, Oybek, I.Sulton, H.Yoqubov, M.Qo'shjonov, A.Hayitmetov, Ozod Sharafiddinov. Istiqlol davri o'zbek tanqidchiligi.

“ARUZ VA POETIKA ASOSLARI”

Aruz haqida, uning tarixi haqida umumiy tushuncha. Aruzning boshqa she'riy tizimlardan farqli va umumiy jihatlari. She'riy tizimlarning o'zgarishiga sabab bo'ladigan ijtimoiy-siyosiy omillar. Aruz she'riy tizimining adabiyotshunoslikda o'rganilish tarixi. Aruzning shu kundagi ahvoli. Qisqa, cho'ziq va o'ta cho'ziq bo'g'inlar haqida tushuncha. Bo'g'in va xijo tushunchalarining munosabatlari, O'zaro farqli jihatlari. Hijolarning birikuvidan yuzaga keladigan aruz elementlari – vataad, sabab va fosila hamda ularning turlari haqida tushuncha. Ruknlar va ularning tuzilishi, turlari. Mafoiylun ruknining tarmoqlari, ularning o'qilishi va paradigmasi haqida tushuncha. Bahrlar haqida ma'lumot. Ularning tarkibiy tuzilishi.

“JAHON ADABIYOTI”

O'rta asrlar shahar adabiyoti, klassitsizm, sentimentalizm – XV-XVII asrlardagi asosiy adabiy yo'nalishlar ekani, ma'rifatparvarlik adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari, romantizm – XVIII asr oxiri va XIX asr boshlaridagi adabiy oqim ekani haqida ma'lumot beriladi. Jumladan, janrlar rivoji, G'arbiy Yevropa mamlakatlarida realizm oqimining paydo bo'lishi va taraqqiy etishi, shu asr yozuvchilarining ijodi bo'yicha tushunchalar. XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi jahon adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari, adabiy yo'nalishlarning turli-tumanligi: naturalizm, impressionizm, simvolizm, modernizm, postmodernizm va boshqa yo'nalish hamda oqimlar yuzasidan tasavvur.

Shuningdek, O'rta va Markaziy Osiyo, Kavkaz va Kavkazorti hamda Slavyan xalqlari adabiyotining yuzaga kelishi, uni davrlashtirish, klassik va zamonaviy adabiyotning uzviy aloqasi va uzviyligi haqida so'z yuritiladi. Hozirgi zamon adabiyoti janr, mavzu, g'oyaviy jihatlari. O'rta va Markaziy Osiyo, Kavkaz va Kavkazorti hamda Slavyan xalqlari adabiyoti mashhur namoyandalarining hayoti va ijodi, ularning ijodiy merosi o'rganilib, muayyan asarlar ilmiy-nazariy tahlil etiladi. O'zbek adabiyoti va mazkur xalqlar adabiyoti, adabiy aloqalar, adabiy ta'sir, tarjima va uning adabiy aloqalardagi roli, xalqlar orasidagi hamkorligi.

Kirish imtihonining yozma ish shaklida o'tkazish tartibi va baholash mezon

Doktoranturaga kirish sinovi umumiy ballari quyidagilardan tashkil topadi:

Doktoranturaga kirishda tanlagan mutaxassislik bo'yicha bilim darajasini belgilovchi maxsus fanlardan sinov o'tkaziladi (baholash 100 ballik mezonda tashkil etadi):

90-100 ball (jami balning 90-100%) fanni mukammal o'zlashtirgan, variantda ko'rsatilgan savollarga so'z va iboralardan foydalanib, nazariy jihatdan asoslagan, chuqur va ilmiy-tahliliy tarzda yoritilgan talabgorlarga qo'yiladi. Shuningdek, bunda talabgorning mustaqil ko'nikmalari va qo'shimcha manbalardan foydalanganligi ham hisobga olinadi.

70-89 ball (jami balning 70-89%) fanni o'zlashtirgan, variantda ko'rsatilgan savollarga so'z va iboralardan foydalanib javob bermagan, lekin faqat savolning o'zi bilan cheklanib, tavsiya etilgan darslik va qo'llanmalarda berilgan fikrlardan ijodiy foydalana olgan, qo'shimcha adabiyotlardan foydalana olmagan talabgorlarga qo'yiladi.

60-69 ball (jami balning 60-69%) fanni qisman o'zlashtirgan, qo'yilgan savollarga qisman javob bera olgan, qo'shimcha adabiyotlardan foydalana olmagan talabgorlarga qo'yiladi.

60 % dan kam ball savollarni yoritishda so'z va iboralarga qoniqarli javob bermagan, variantdagi savollarga javoblarini to'liq yoritilgan olmagan, ilmiy jihatdan asoslamagan talabgorlarga qo'yiladi.

Barcha doktorantlar mutaxassislik bo'yicha kiruvchilarni mutaxassislik fanlardan reytinglarini aniqlashda, baholash mezonini quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- sinov bilet asosida yozma ish shaklda o'tkaziladi;
- har bir biletga 5 (besh) tadan savol kiritiladi;
- har bir bilet Davlat standartlari bo'yicha magistrantlar tayyorlash dasturiga kiritilgan mutaxassislik fanlarni asosiy tushunchalaridan tashkil topadi;
- biletga kiritilgan har bir savol 20 (jami 100) ballik sistemada baholanadi.

DOKTORANTURAGA KIRUVCHILARNI BILIMINI BAHOLASH MEZONI

№	Doktoranturaga kiruvchining bilim darajasi	Ball
1	Nazariy jihatdan chuqur bilimga ega bo'lib, mustaqil mushohada yuritib, masalaning mohiyatini tushinib, bu haqda chuqur tasavvurga ega, ilmiy jihatdan asoslagan, qo'shimcha manbalardan foydalangan	18-20
2	Berilgan masala haqida mustaqil mushohada yuritgan, uning mohiyatini tushunib, u haqda tasavvurga ega bo'lgan, masalaning o'zi bilan cheklanib, qo'shimcha manba va adabiyotlardan foydalana olmagan	14-17
3	Masalaning mohiyatini tushunib, u haqda tasavvurga ega bo'lgan, savolga qisman javob bera olgan, qo'shimcha adabiyotlardan foydalana olmagan	12-13
4	Berilgan masala haqida aniq tasavvurga ega bo'lmagan, savolga qisman javob yozgan, manbaalarda bor ma'lumotlarni to'liq keltirmagan	0-11

Kirish imtihonining test sinovi shaklida o'tkazish tartibi va baholash mezon

Kirish imtihoni ko'p variantli test sinovi shaklida o'tkazilsa har bir variant 100 ta (yoki 50) test savollaridan iborat bo'ladi. Test sinovini baholash 100 ballik tizim asosida amalga oshiriladi.

Talabgorlar bilim darajasini belgilashda 100 ta savoldan iborat test sinovi o'tkazilganda:

- test sinovida 90-100 oralig'ida to'g'ri javobni topgan talabgorlarga mos xolda 90-100 ball qo'yiladi.
- test sinovida 70-89 oralig'ida to'g'ri javobni topgan talabgorlarga mos xolda 70-89 ball qo'yiladi.
- test sinovida 60-69 oralig'ida to'g'ri javobni topgan talabgorlarga mos xolda 60-69 ball qo'yiladi.
- test sinovida 60 tadan kam to'g'ri javobni topgan (60 baldan kam ball yig'gan) talabgorlar sinovdan o'tmagan hisoblanadi.

Kirish imtihoni bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichi 0 dan 100 balgacha baholanadi (90-100 ball – a'lo, 70-90 ball – yaxshi, 60-69 ball – qoniqarli, 0-59 ball – qoniqarsiz)

***Eslatma:** Doktoranturaga kirish imtihonlari jarayonida qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan talabgorlar yakuniy baholar e'lon qilingan kundan e'tiboran 24 soat muddat ichida appelyatsiya komissiyasiga murojaat qilishga haqli. Doktoranturaga kirish imtihonlari komissiyasi va talabgor o'rtasida baholash ballari bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar maxsus appelyatsiya komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi hamda imtixon raisi bilan kelishilgan holda xulosa qilinadi.*

Asosiy adabiyotlar:

1. Sayfullaeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. (Darslik) –T., 2025
2. Qodirov Z. Hozirgi o'zbek adabiy tili. (Darslik). –Toshkent: Metodist, 2025.
3. Iskandarova Sh. O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. (Darslik). – Farg'ona, 2024.
4. Iskandarova Sh., Naraliyeva Sh., Ganiyeva Sh. Umumiy tilshunoslik. – Chimkent, 2023.
5. Sattarova N.O. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Leksikologiya. (O'quv qo'llanma). – Toshkent: Metodist, 2023
6. Xolmanova Z. Tilshunoslik nazariyasi. (Darslik). –Toshkent: Nodirabegim. 2020.
7. Normamatov S. Leksikografiya asoslari. (O'quv qo'llanma). –Toshkent, 2020.
8. Xolmanova Z. Kompyuter lingvistikasi. –Toshkent, 2019.
9. Jamolxonov H.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent.: O'zbekiton milliy ensiklopediyasi. 2013.
10. Abdurahmonov G., Shukurov SH., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. – T., "O'qituvchi", 2008.
11. Muxtorov J., Sanaqulov O'. O'zbek adabiy tili tarixi. – T. O'qituvchi. 1995.
12. Tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi. Tuzuvchi: H. Dadaboev. – T. 2004.
13. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish.–Toshkent, 2007.
14. Nurmonov A., Iskandarova Sh. Tilshunoslik nazariyasi. –Toshkent: Fan, 2008.
15. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 3 jildli. –Toshkent: Akademyashr, 2012.
16. Rafiyev A. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. –T., 2004.

17. To'ychiboyev B., Hasanov B. O'zbek dialektologiyasi. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, –T., 2004.
18. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – T. 2011.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Lutfullayeva D. Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi. –Toshkent, 2017.
2. Ashirboyev S., Azimov I., Rahmatov M., G'oziyev A. Eski o'zbek tili va yozuvi praktikumi. –T., 2006.
3. Abduazizov A., Sheremetova A. Общее языкознание. – T., 2004.
4. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo'nalishlari. –Andijon. 2006.
5. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. –Toshkent, 2002.
6. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. O'UM, O'zMU 2011.
7. Murodova N. O'zbek adabiy tili va shevalar leksikasining qiyosiy tadqiqi. –T., Fan, 2005.
8. O'zbek dialektologiyasi. O'UM, O'zMU 2011. O'zbek filologiyasi fakulteti kutubxonasi.
9. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
11. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis. Toshkent: O'qituvchi, 1995.
12. Nurmonov A. va boshqalar. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya. Toshkent: Yangi asr avlodi. 2001.
13. www.dersimiz.com
12. www.altinmiras.com
13. www.thinsan.com